



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№4(4)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 134 sahifa,
22-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

Pedagog kadrlar tayyorlashda microteaching metodining tashkiliy asoslari va uni samarali qo'llash mexanizmlari.....	10
Abdiqayumova Malika	
Ijtimoiy pedagogik faoliyatning bolalarning moslashuv ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'rni	14
Abdullayeva Yulduz Qurbon qizi, Xudayberdiyeva Zilola Azamat qizi	
Talabalarning og'zaki nutqini interfaol usullar yordamida rivojlantirish	18
Atamirzayeva Ezoza	
English Language Barriers Among Rural Ecotourism Guides in Uzbekistan	22
Aminova Asilaxon Sobir qizi	
Совершенствование методов обучения студентов эффективному управлению временем на основе тайм-менеджмента.....	25
Уразова М. Б., Абатова У. Б.	
Zamonaviy ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni va samaradorligi	30
Xurramova Dilso'z Baxtiyor qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin asosida ta'limni tashkil etishning pedagogik ahamiyati.....	33
Gaipova Akjunis Qayratovna	
Bo'lajak o'qituvchilarda o'zini o'zi tashkil etish tushunchasi va uning pedagogik mohiyati.....	37
Alimov Bekzod Nematovich	
O'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanish tadbirlarini maktab darajasida boshqarishning integratsiyalashgan yondashuvi	41
Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi	
Talabalarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda innovatsion yondashuvlar	48
Xurramova Sanobar Mahmatmurod qizi	
Pedagogical Integration as a Factor of Humanization in Professional Teacher Education	53
Yusupova Mukhabbat Anatolyevna	
Yoshlarda iqtisodiy tafakkur shakllanishida etnik muhitning ta'siri.....	58
Erkinova Sevara Najmiddin qiz	
Innovative Approaches to Teaching English in Higher Education: a Methodological Study	61
Gulsara Khakimova	
Bo'lajak pedagoglarda kognitiv faollikni rivojlantirishda neyropedagogika asoslari.....	63
Hikmatova Jamila Fatox qizi	
Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning eshituv idrokini rivojlantirish texnologiyalari.....	68
I. S. Xamrayeva, Nuriddinova Muxayyo Ishxodjayevna	
Badiiy matn asosida nutqiy ko'nikmalar va ijodiy tafakkur integratsiyasini ta'minlash metodikasi	73
Jo'rayeva Sevinch Abdialim qizi	
Etnopedagogik muhitda maktabgacha katta yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish.....	77
Murodova Farangis G'anisherovna	
Malaka oshirish jarayonida muammoga asoslangan o'qitish vositasida MTT tarbiyachilarining 4K ko'nikmasini rivojlantirish texnologiyasi	81
Ravshanova Xafiza Komilovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xalq og'zaki ijodi vositalaridan (ertak, maqol, qo'shiq, afsona, doston va boshqalar) foydalanishning nazariy asoslari, xalqaro va milliy tajribasi	85
Tog'ayeva Munisa Muxammadiyevna	
Akademik ko'nikmalarni rivojlantirish asosida kelajakdagi o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish	89
Tursunova Elmira Ulug'bekovna, Rayimova Mushtariy Raup qizi	
Sensor integratsiya autizm spektori buzilishi bo'lgan bolalarning xulq-atvor va hissiy holatiga ta'siri.....	91
Xamidova Muyassar Polsaidovna, Abdullayeva Muslima Shovkat qizi	



Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	96
<i>Xoshimova Dilobar Kuchkarovna, Nortosheva Dildora Orif qizi, Avazmurodova Mehribon Sharif qizi</i>	
Инновационная методика нравственного воспитания в начальных классах: подход межпредметной интеграции	101
<i>Улугмурадова Шохсанам</i>	
Shaxs o'z-o'zini anglashining ijtimoiy-psixologik jihatlari	105
<i>Bobonazarov Oybek Shoyim o'g'li</i>	
Samarqand arxitektura-qurilish instituti va shahar infratuzilmasi rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlik (1950–1990yy).....	108
<i>Abulqosimova Dildora Asrorovna, O'ralov Sodiqjon</i>	
Tabiatshunoslik darslarida steam yondashuvi asosida ta'limni tashkil etish metodlari	111
<i>Gulnora Narmatova Tojiyevna</i>	
AI-Mediated Coil in Oral English Teacher Education: a Didactic Model for Developing Intercultural Communicative Competence.....	115
<i>Mukhammadiyeva Khalima Saidakhmadovna</i>	
Pedagogik faoliyatda kasbiy stress jarayonining ijtimoiy psixologik xususiyatlari	119
<i>Xotamova Madinabonu Iloxomjon qizi</i>	
Pedagogik mahorat fani asosida bo'lajak o'qituvchilarning refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyalari.....	123
<i>Xurramova Mohidil Baxtiyorovna</i>	
Bo'lajak kutubxonachilarda ilm-fanga oid bilimlarni o'zlashtirish malakasini shakllantirish	126
<i>O'rozov Abdurasul Norboyevich</i>	
Методологические подходы к развитию духовно-творческого потенциала детей младшего школьного возраста	130
<i>Хасанова Гулшод Касимовна</i>	



PEDAGOGIK MAHORAT FANI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING REFLEKSIV KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Xurramova Mohidil Baxtiyrovna

TISU Pedagogika va texnologik ta'lim kafedrası v.b.dotsenti (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish jarayonida reflektiv ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyalari, o'ziga xos jihatlari, faoliyat jarayonida pedagogik reflektiv ko'nikmalarni shakllantirish yo'llari, reflektiv ko'nikmani egallash shartlari, fikrlash, tushunish, o'z-o'zini tahlil qilish, kasbga yo'naltirishning mazmuni, mohiyati va zaruriyati, bunda doimiy tadqiqotlar o'tkazish, tajribani o'rganish, tahlil qilish va xulosalar ishlab chiqish zarurati, professionallik, tizimli bilimlarni egallash qobiliyati, mashqlar, takrorlashlar orqali xulosalar chiqarish hamda mavzu bo'yicha keng va chuqur bilimlarni egallash va takomillashtirish asosida shakllanish mazmuni ochib beriladi.

Kalit so'zlar: pedagogik mahorat, refleksiya, reflektiv ko'nikma, fikrlash, kritik fikrlash, tushunish, o'z-o'zini tahlil qilish, kasbga yo'naltirish, kasbiy refleksiya, kasbiy faoliyat, tadqiqotchilik, tafakkur, emotsional reflektiv qobiliyat, pedagogik tayyorgarlik.

Abstract: This article describes the technologies for developing reflective skills of future teachers in the process of improving their pedagogical skills, their specific aspects, ways of forming pedagogical reflective skills in the process of activity, the conditions for acquiring reflective skills, thinking, understanding, self-analysis, professional orientation, content, essence, and necessity, the need for continuous research, the study of experience, analysis and development of conclusions, professionalism, the ability to acquire systematic knowledge, exercises, repetitions, as well as the content of formation through acquiring and improving broad and deep knowledge on the subject.

Key words: pedagogical skills, reflection, reflective skills, thinking, critical thinking, understanding, self-analysis, career orientation, professional reflection, professional activity, research, emotional reflective ability, pedagogical preparation.

Аннотация: В данной статье описываются технологии развития рефлексивных навыков будущих учителей в процессе совершенствования их педагогических умений, их специфические аспекты, способы формирования педагогических рефлексивных навыков в процессе деятельности, условия приобретения рефлексивных навыков, мышление, понимание, самоанализ, профессиональная ориентация, содержание, сущность и необходимость, потребность в постоянном проведении исследований, изучении опыта, анализе и разработке выводов, профессионализм, способность к систематическому приобретению знаний, упражнения, повторения, а также содержание формирования посредством получения и совершенствования широких и глубоких знаний по теме.

Ключевые слова: педагогические навыки, рефлексия, навыки рефлексии, мышление, критическое мышление, понимание, самоанализ, профессиональная ориентация, профессиональная рефлексия, профессиональная деятельность, исследование, эмоциональная рефлексивная способность, педагогическая подготовка.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimi keng dunyoqarashga ega, mustaqil fikr yurita oladigan hamda o'z faoliyatini tanqidiy baholay biladigan pedagoglarni tayyorlashni talab etadi. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarga faqat nazariy bilim berish bilan cheklanib qolmay, ularning reflektiv ko'nikmalarini rivojlantirish ham muhim vazifalardan biri sifatida qaraladi. Refleksiya – shaxsning o'z fikrlari, xatti-harakatlari va erishilgan natijalarini anglash, tahlil qilish hamda ularga baho berish jarayonidir. Pedagogik mahoratga oid fanlar esa aynan shu ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish uchun zarur metodik asos va vositalarni taqdim etadi. Reflektiv ko'nikmalar o'qituvchining o'z faoliyatini ongli ravishda tahlil qilish, uni baholash va yanada takomillashtirishga intilish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu ko'nikmalar orqali pedagog o'z faoliyatidagi o'zgarishlarni anglaydi, o'quvchilar bilan ishlash jarayonida yuzaga keladigan kamchiliklarni aniqlaydi hamda ularni bartaraf etishning samarali yo'llarini ishlab chiqadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bo'lajak o'qituvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish ta'lim tizimi oldida turgan ustuvor vazifalardan biri bo'lib, bu jarayon ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Refleksiya o'qituvchining o'z faoliyatini tahlil qilish, xatolarni aniqlash, zarur o'zgartirishlar kiritish va uzluksiz o'zini rivojlantirib borishida muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, refleksiv yondashuv pedagogning kasbiy o'sishini ta'minlab, ta'lim sifati yaxshilanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday ko'nikmalarni egallagan o'qituvchi nafaqat o'z faoliyatini, balki o'quvchilarning o'quv jarayonini ham chuqur tahlil qiladi hamda bilimlarni samarali yetkazish uchun yangi va innovatsion metodlarni ishlab chiqishga intiladi.

Refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirish tuzilmasi o'qituvchining pedagogik faoliyatini muntazam tahlil qilish va uni izchil takomillashtirib borishga xizmat qiluvchi bir qator muhim tarkibiy qismlardan iborat. Mazkur komponentlar o'qituvchining o'z faoliyatini baholay olish, unga tanqidiy yondashish, yangilik va o'zgarishlarga ochiq bo'lish hamda uzluksiz o'z ustida ishlash kabi jihatlarni qamrab oladi. Har bir komponent pedagogning kasbiy mahoratini oshirishga xizmat qilib, ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlash hamda o'quvchilarning natijadorligini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi. "Pedagogik mahorat" faniga tayangan holda bo'lajak o'qituvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish uchun zarur bo'lgan asosiy yo'nalishlar hamda ularni amaliy faoliyatda qo'llash usullari yoritiladi. Bu esa kelajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini mustahkamlash, ularning refleksiv faoliyatini rivojlantirish va samarali pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqishga zamin yaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bo'lajak o'qituvchilarning refleksiv ko'nikmalarini chuqurroq tahlil qilish ularning mazmun-mohiyatini yanada aniqroq ochib berishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, refleksiv ko'nikmalar bir qator o'zaro bog'liq tarkibiy komponentlardan iborat bo'lib, har biri pedagogning kasbiy shakllanishida muhim o'rin egallaydi. Avvalo, refleksiyaning asosiy elementi sifatida fikrlash namoyon bo'ladi. Bu jarayon orqali bo'lajak o'qituvchi o'z pedagogik faoliyatini tahlil qiladi, uning samaradorligini baholaydi va zarur o'zgarishlarni aniqlaydi. Fikrlash nafaqat mavjud tajribani anglash, balki yangi bilimlarni o'zlashtirish hamda ularni qayta ko'rib chiqishni ham qamrab oladi.

Keyingi muhim komponent – tushunish bo'lib, u pedagogik jarayonning mazmunini chuqur anglashni ifodalaydi. Bo'lajak o'qituvchi o'z faoliyatining maqsadi va ahamiyatini to'g'ri tushungan holda, yuzaga kelgan vaziyatlarga ongli yondashadi va xatolaridan tegishli xulosalar chiqaradi. O'zini o'zi nazorat qilish va o'zini o'zi kuzatish refleksiyaning amaliy jihatlarni tashkil etadi. Birinchisi o'z faoliyatini mustaqil baholash va boshqarishni anglatgan bo'lsa, ikkinchisi pedagogik jarayonni tizimli ravishda kuzatish, undagi kuchli va zaif tomonlarni aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, xulosalash va taqqoslash ko'nikmalari ham muhim ahamiyatga ega. Xulosalash orqali o'qituvchi o'z tajribasini umumlashtiradi va yangi bilimlarga ega bo'ladi, taqqoslash esa turli pedagogik yondashuvlarni solishtirish asosida eng samarali usullarni tanlashga yordam beradi. Refleksiyaning muhim tarkibiy qismlaridan yana biri – o'z-o'zini tahlil qilish bo'lib, bunda bo'lajak o'qituvchi o'z darslari, metodlari va o'quvchilar bilan ishlash jarayonini chuqur o'rganadi. Bu jarayon o'z-o'zini bilish, o'z-o'zini anglash va o'z-o'zini aniqlash bosqichlari orqali izchil rivojlanadi. Natijada pedagog o'zining real va ideal "Men" obrazlarini uyg'unlashtirishga erishadi. Keyingi bosqichda o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini baholash muhim o'rin tutadi. Bu jarayonlar orqali bo'lajak o'qituvchi o'z ustida ishlashni davom ettiradi, aniq maqsadlar belgilaydi va kasbiy kompetensiyalarini takomillashtiradi. Bundan tashqari, refleksiv ko'nikmalar tajriba asosida o'rganish bilan chambarchas bog'liq bo'lib, amaliy mashg'ulotlar va pedagogik faoliyat jarayonida to'plangan tajribani tahlil qilish orqali mustahkamlanadi. Shu bilan birga, emotsional-refleksiv qobiliyat pedagogga o'z his-tuyg'ularini anglash va boshqarish imkonini beradi, bu esa ta'lim jarayonining samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Refleksiv faoliyatda kritik fikrlash alohida ahamiyat kasb etadi. U pedagogik qarorlarni tanqidiy baholash, yangi metodlarni sinab ko'rish va eng maqbul yondashuvlarni tanlashga yordam beradi. Shu bilan birga, tashkiliy-pedagogik qobiliyatlar va ijtimoiy-refleksiv ko'nikmalar orqali bo'lajak o'qituvchi dars jarayonini samarali tashkil etadi hamda o'quvchilar bilan o'zaro munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yadi. Umuman olganda, refleksiv ko'nikmalar tizimi bo'lajak o'qituvchining kasbiy shakllanishida muhim omil bo'lib, uning pedagogik mahoratini oshirish, ta'lim sifati yaxshilash va o'quvchilar bilan samarali ishlashga xizmat qiladi. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirishda yuqorida keltirilgan tarkibiy komponentlar muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Ular pedagogning o'z faoliyatini chuqur tahlil qilishi, uning samaradorligini oshirishi va takomillashtirishga qaratilgan yondashuvlarni shakllantiradi. Har bir komponent o'z-o'zini rivojlantirish, kamchiliklarni bartaraf etish va faoliyatga yangicha yondashuvlarni kiritishga yordam beradi.

Natijada bo'lajak o'qituvchi o'z ishini yanada puxta, samarali va sifatli tashkil eta olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bois ushbu tarkibiy qismlar refleksiv ko'nikmalarni shakllantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy shakllanishida refleksiv ko'nikmalar alohida o'rin tutadi, chunki



zamonaviy pedagogdan faqat bilim berish emas, balki ta'lim jarayonini tahlil qilish, muammolarni aniqlash va ularga yechim topish qobiliyati ham talab etiladi. Shu jihatdan "pedagogik mahorat" fani o'qituvchi shaxsini kompleks rivojlantirishga xizmat qiluvchi nazariy va amaliy asos sifatida muhim ahamiyatga ega. Refleksiv ko'nikmalarni shakllantirishda talabalarning mustaqil ishlashi, o'z faoliyatini kuzatishi va baholashi uchun imkoniyat yaratadigan metodlar katta rol o'ynaydi. Jumladan, reflektiv tahlilga asoslangan muammoli vaziyatlarni yechish mashqlari orqali talabalar real yoki modellashtirilgan pedagogik holatlarni o'rganadi, ularni tahlil qiladi va samarali yechim variantlarini ishlab chiqadi. Pedagogik mahorat fanining asosiy vazifalaridan biri – bo'lajak o'qituvchini o'zini baholashga, mustaqil bilim olishga va uzluksiz rivojlanishga yo'naltirishdir. Shu nuqtai nazardan, refleksiya asosida ishlashni rivojlantiruvchi quyidagi texnologiyalar samarali hisoblanadi: reflektiv esse yozish, reflektiv kundalik yuritish, "3–2–1" usuli, debriefing (fikir almashish), portfolio yuritish kabi metodlar.

Ushbu yondashuvlar orqali talaba o'z faoliyatiga tanqidiy qarashni o'rganadi va shaxsiy pedagogik uslubini shakllantiradi. Bundan tashqari, refleksiv yondashuv o'quvchilarning ehtiyojlari va qiyinchiliklarini aniqlashga, ularga individual yondashuvni ishlab chiqishga ham yordam beradi. Refleksiv suhbatlar, interaktiv muloqotlar, guruhviy muhokamalar va bahs-munozaralar talabalarda mustaqil fikrlashni rivojlantirib, ularning o'z pozitsiyasini asoslab bera olish ko'nikmasini mustahkamlaydi. Shuningdek, pedagogik o'zgarishlarga yo'naltirilgan kichik loyihalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday faoliyat jarayonida talabalar darslarni rejalashtiradi, amalga oshiradi, natijalarni tahlil qiladi va kelgusidagi faoliyat uchun xulosalar ishlab chiqadi. Bu esa ularning o'z-o'zini tahlil qilish, tajribani umumlashtirish va innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish qobiliyatini rivojlantiradi. Shunday qilib, refleksiv ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan texnologiyalar bo'lajak o'qituvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki kasbiy madaniyatini, mas'uliyatini va ijodiy yondashuvini ham oshiradi. Natijada ular ta'lim jarayonini chuqur anglaydigan, tahlil qila oladigan va yangilikka ochiq bo'lgan yetuk mutaxassis sifatida shakllanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, pedagogik mahorat faniga tayangan holda bo'lajak o'qituvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Refleksiya pedagogning o'z faoliyatini anglash, tahlil qilish va izchil ravishda takomillashtirishiga xizmat qiluvchi muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Pedagog olimlarning ilmiy qarashlariga asoslanib ishlab chiqilgan refleksiv yondashuvlar, xususan, esse yozish, portfolio yuritish, debriefing, reflektiv kundaliklar hamda muammoli vaziyatlarga asoslangan metodlar orqali talabalar o'z kasbiy faoliyatiga ongli va mas'uliyatli munosabatda bo'lishni o'rganadilar. Bu jarayon ularning kasbiy yetukligi, javobgarlik hissi va o'z faoliyatini tahlil qilish madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijada, refleksiv texnologiyalar yordamida bo'lajak o'qituvchilar nafaqat ta'lim jarayonining oddiy ishtirokchisi, balki faol, mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida shakllanadi. Kelgusida esa ular chuqur tahlil qila oladigan, tajribaga tayangan holda qaror qabul qiladigan va pedagogik jarayonni samarali tashkil eta oladigan mutaxassislar darajasiga yetadilar.

Shu bilan birga, refleksiv ko'nikmalar o'qituvchining o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatishi, ularning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda yondashuvi hamda ta'lim jarayonini uzluksiz takomillashtirib borishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Demak, refleksiv kompetensiyalarni rivojlantirish nafaqat pedagog shaxsining kamoloti, balki ta'lim sifatini oshirishning ham asosiy shartlaridan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xoliqov A. Pedagogik mahorat: o'quv qo'llanma. T.: "IQTISOD MOLIYA" nashriyoti, 2010.
2. Xalikov A.A. O'qituvchining dars jarayonida tarbiyaviy ta'sir o'tkazish mahorati // Xalq ta'limi. Toshkent, 2012.
3. Xalikov A.A. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilar pedagogik mahoratini rivojlantirish // Maktab va hayot. Toshkent, 2015.
4. Семенов И.Н. Психология рефлексии в организации творческого процесса мышления: автореф. дис. докт. психол. наук. М., 1992. – 52 с.
5. Кулюткин Ю.Н. Развитие творческого потенциала учителя в процессе его последипломного образования // Проблемы непрерывного образования. Псков: Курсив, 1995. №4. – С. 3.
6. Шеранова М.Б., Шукурова Х.С., Алимкулов С.О. Особенности формирования современного педагога // Молодой ученый. Учредители: ООО "Издательство Молодой ученый". ISSN: 2072-0297, eISSN: 2077-8295. №22 (102), 2015. – С. 884–887.
7. Xurramova M.B. Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish jarayonida refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirishning hozirgi holati // Uzluksiz ta'lim. Toshkent, 2024.
8. Xurramova M.B. Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish jarayonida refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirish shartlari // Mug'allim hem uzluksiz bilimlar. Nukus, 2024.
9. Bakhtyorovna, K.M. (2024). Ways of forming pedagogical skills in the process of educational work. *Gospodarka i Innovacje*, 48, 18–20.
10. M., K. (2023). Theoretical and methodological foundations of the technology of forming reflective skills in future teachers. *Journal of Science, Research and Teaching*, 2(8), 107–110. Retrieved from <http://jsrt.innovascience.uz/index.php/jsrt/article/view/280>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.